

**Shadiyeva Nigora Sharipovna**

Buxoro davlat pedagogika instituti  
geografiya kafedrası dotsenti,  
pedagogika fanlari falsafa doktori (PhD)  
[nigrollashadiyeva10@gmail.com](mailto:nigrollashadiyeva10@gmail.com)

## TALABALARINING KASBIY KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISH O'RNI VA AHAMIYATI

**Annotatsiya.** Mamlakatimizda kechayotgan zamonaviy globallashtirish jarayonlarida malakali kadrlar tayyorlash, demokratik o'zgarishlarni chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyati asoslari konsepsiyasini hayotga tatbiq etish, ijodiy tafakkur, innovatsion fan va texnologiyalarni, innovatsion ta'lim yo'nalishlari asosida xalqaro pedagogik tajribani o'zlashtirish zarurati tug'ilmoqda. Ta'lim va tarbiya uzluksizligini ta'minlash doimo e'tiborda bo'lib kelgan masalalardan biridir.

**Kalit so'zlar:** munozara, trening, ishbilarmonlik o'yini, aql, fikrlash, o'z-o'zini hurmat qilish, bola rivojlanishi

## РОЛЬ И ВАЖНОСТЬ РАЗВИТИЯ ПРОФЕССИОНАЛЬНЫХ КОМПЕТЕНЦИЙ СТУДЕНТОВ

**Аннотация.** Актуальные вопросы этапов развития образования изучаются как приоритетное направление, в частности, подготовка будущих учителей к инновационной профессиональной деятельности, разработка инновационных моделей и повышение конкурентоспособности будущих кадров.

**Ключевые слова:** программные инструменты, компетенция, компетентность, профессиональная компетентность, профессиональная деятельность.

## THE ROLE AND IMPORTANCE OF DEVELOPING PROFESSIONAL COMPETENCIES

**Abstract.** Current issues of the stages of development are being studied as a priority area of education, preparing future teachers for innovative professional activities, developing innovative models, and increasing the competitiveness of future personnel, as one of the current areas.

**Keywords:** software tools, competence, competence, professional competence, professional activity.

Jahonda ta'lim tizimini yangilash, bo'lajak geografiya fani o'qituvchilarining, kasbiy dunyoqarashi bo'yicha kompetensiyaviy yondashuvlar, muammoli o'qitish hamda tatqiqotchilik faoliyatiga o'rgatish, zamonaviy ta'limni sifat jihatdan yuqori bosqichga olib chiqishga qaratilgan yangicha islohotlar olib borilib, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi 2019 yil 8 oktabrdagi PF-5847-sonli Farmonida Oliy ta'lim mazmunini sifat jihatdan yangi bosqichga chiqarish, ijtimoiy va iqtisodiy tarmoqlarning barqaror rivojlanishiga munosib hissa qo'shadigan, mehnat bozorida o'z o'rnini topa oladigan yuqori malakali kadrlar tayyorlash ustuvor vazifa sifatida belgilangan. Shu nuqtai nazardan bugungi kunda bo'lgan bo'lajakgeografiya fani o'qituvchilarni tayyorlashda kompetensiyaviy yondashuv asosida rivojlantirishga alohida e'tibor berilmoqda.

Bo'lajak geografiya ta'lim yo'nalishi o'qituvchilari zamon talablariga mos tarzda ta'lim berishi, yoshlardan bir qadam oldinda yurishi kerak. Bugungi yoshlarimiz shunchalar talabchanki,

ular zamonaviy kompyuter, raqamli texnologiya, dasturiy ta'lim vositalaridan foydalanishi turli rusumdagi telefon va internet sohasini tez o'zlashtiradi. Yoshlarga yangicha ta'lim berish usul va metodlarni qo'llash, yangi zamonaviy texnologiya, innovatsion texnologiya, raqamli texnologiyalar va dasturiy ta'lim ilovalarini ta'limga olib kirib zamonaviy tarzda dars berish ularning kompetensiyaviy yondashuv asosida rivojlantirish muhim hisoblanadi.

Oliy ta'lim muassasalarining o'quv dasturlari talabalarining bilim, ko'nikma qobiliyatlarini kompetensiyaviy yondashuv asosida rivojlantirishni ta'minlaydigan ma'lumotlar bilan boyitish zarurdir. Bu uchun bo'lajak geografiya fani o'qituvchilarni kasbiy faoliyatga tayyorlashda ijodiy fikrlash va mustaqil qarorlar qabul qilishga o'rgatish ta'lim sifatini oshirishga olib keladi. Albatta bu esa mazkur jarayonning asosiy tashkilotchisi bo'lajak geografiya fani talabalarini kompetensiyaviy yondashuv asosida tayyorlash sifatiga bog'liqdir.

Turli xil izohli lug'at va ilmiy adabiyotlarda "kompetensiya" va "kompetentlik" tushunchalari turlicha izohlanadi.

"O'zbekiston milliy ensiklopediyasi"da keltirilishicha: "kompetensiya" (lot. Competo – erishyapman, munosibman, loyiqman) demakdir.

Rus tili lug'atida "kompetensiya"ga shunday izoh berilgan, [lot. competo – erishyapman; munosibman, loyiqman]

1. Qonun, nizom yoki boshqa hujjat bilan muayyan organ yoki mansabdor shaxsga berilgan topshiriq;

2. Muayyan sohadagi bilim, tajriba [7].

Bilimli, qobiliyatli, malakali bo'lish negizidagi "kompetensiya" so'zining kelib chiqishi chuqur o'tmishimiz tarixiga borib taqaladi. O'zbek xalqining asriy an'analari, jumladan, ta'lim-tarbiya sohasidagi yutuqlari ajdodlarimizning tabarruk o'gitlari bilan bog'liq.

Rus olimi I.A. Zimnyayaning ta'kidlashicha, kompetensiya muammosi bo'yicha olib borilgan ishlarning tahlili shartli ravishda ta'limda yondashuvni shakllantirishning uch bosqichini belgilashga imkon beradi (1-jadvalga qarang):

I.A. Zimnyayaning ta'limoti bo'yicha kompetensiya bosqichi

1-jadval.

| Bosqich | Yillar     | Izohi                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                     |
|---------|------------|-------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|
| I       | 1960-1970  | "kompetensiya" toifasini ilmiy foydalanishga kiritish, kompetensiya/kompetentlik tushunchalarini farqlash uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish bilan tavsiflanadi                                                                                                                                                                      |
| II      | 1970-1990  | tilni (ayniqsa, chet tili) o'qitish nazariyasi va amaliyotida kompetensiya va kompetentlik toifalaridan foydalanish, hamda boshqaruv, menejment va muloqotni o'rgatishda kasbiylikni aniqlashdan iborat                                                                                                                                   |
| III     | 1990- h.k. | Rossiya mamlakatida ta'limga nisbatan kompetensiyani ilmiy kategoriya sifatida o'rganish alohida har tomonlama ko'rib chiqiladigan obyekt sifatida faoliyat yuritishi bilan ajralib turadi. Bu davrda YuNESKO materiallarida ta'limning istalgan natijasi sifatida qaralishi kerak bo'lgan bir qator kompetensiyalar paydo bo'la boshladi |

Bu borada EQF (The European Qualifications Framework) Yevropa malakaviy doirasi hujjatida kompetensiyani "ish yoki o'qish davrida kasbiy va shaxsiy rivojlanish bo'yicha bilim, ko'nikma va shaxsiy, ijtimoiy va metodologik qobiliyatlardan foydalanishning tasdiqlangan uslubi" sifatida belgilaydi. Aniqrog'i, "kompetensiya" o'zi samarali harakat qilish qobiliyati bilan emas, balki mas'uliyatli yondashish darajasi bilan bog'liqdir [4].

Ba'zi manbalarda "kasbiy kompetensiya" yoki "kasbiy kompetentlik" deb yuritiladigan ta'rifning ma'nosiga izoh berib o'tamiz. Shuni ta'kidlash joizki, bu ikki so'z ayrim manbalarda mujmal holda talqin etilgan. Vaholanki, "kasbiy kompetentlik" tushunchasiga bizning nazarimizda, pedagog sifatida faoliyatini olib borayotgan, bosqichma-bosqich shakllangan kasbiy layoqatga nisbatan qo'llanilganda ularning xususiyatlari va shaxsiy fazilatlarini birligini ifodalovchi belgilar mujassamligi sifatida tushunish mumkin. Boshqacha qilib aytganda, pedagoglar kasbiy

66 faoliyatining sifat ko'rsatkichidir. "Kasbiy kompetensiya" esa bilim, ko'nikma, malaka, kasbiy munosabatga ega xususiyatlarni o'z ichiga olgan, kasbiy faoliyatga tayyorlanish davrida shaxs sifatida o'zini tushunish, o'z kasbiy imkoniyatlarini anglash, shakllantirish kabi shaxsiyatning barcha tomonlarini qamrab oladi. [7].

Kasbiy kompetensiyani shakllantirish muammolariga oid ilmiy adabiyotlarni o'rganayotganda, birinchidan, so'nggi o'n yillikda ushbu muammolarga ko'plab tadqiqotlar bag'ishlanganligiga e'tibor qaratdik, ikkinchidan, tadqiqotchilar ushbu tushunchani turli yo'llar bilan ochib berishgan, ularga mualliflik yondashuvini berishga harakat qilishgan. Jumladan, pedagog olimlar o'z ishlarida kasbiy kompetensiya tushunchasini ko'rib chiqqanlar [7].

Georgening monografiyasida kasbiy kompetensiya tuzilmasining tarkibiy qismini belgilaganda, uning o'zgarish tuzilishiga taalluqli motivatsion-qiymatli, kognitiv, faollik, shaxsiy va refleksiv asoslari keltirilgan (George, 2016). Shunday qilib, ko'pchilik tadqiqotchilar kasbiy kompetensiyani tuzilmali asosini dinamik rivojlanayotgan shaxsiy xususiyat sifatida belgilash to'g'ridir, deb e'tirof etishgan.

Yuqoridagi jadvalni inobatga olgan holda va amalga oshirilgan nazariy tahlil kasbiy kompetensiya tuzilmasidagi: motivatsion-qiymatli, faoliyatga yo'naltirilgan, kognitiv, protsessual (jarayonli) va refleksiv tarkibiy qismlarni (kasbiy kompetensiya tarkibiy komponenti sifatida) ajratishga imkon beradi. [6].

O'qituvchi kasbiy kompetensiyasining tarkibiy qismlari

2-jadval.

| Motivatsion-qiymatli                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                          | Kognitiv                                                                                                                                                                                                                                   |
|-----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|--------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|
| Bo'lajak o'qituvchining kasbiy faoliyatiga shaxsiy munosabatini, uning kasbiy mehnat va ta'limga bo'lgan ishtiyoqini, shaxsiy maqsad va manfaatlarini aks ettiradi. Bunda muvaffaqiyat va muvaffaqiyatsizlikka uchraganda adekvat munosabatning namoyon bo'lishi, kasbiy faoliyatning ahamiyatini anglash, o'zini o'zi rivojlantirish, tarbiyalash va takomillashtirishga ijobiy munosabatni mujassamlashtiradi                               | Kasbiy faoliyatining muhimligini anglash, shu jumladan, kompetensiya mazmuni, uning kelajakdagi kasbiy faoliyati haqidagi bilim va ko'nikmalar mohiyati                                                                                    |
| Faoliyatga yo'naltirilgan                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                     | Protsessual (jarayonli)                                                                                                                                                                                                                    |
| Bo'lajak o'qituvchilarda shakllangan bilim, ko'nikma va malakalar darajasini ko'rsatadi, xususan, umumiy kasbiy (o'quv, kommunikativ, refleksiv va boshqalar) va maxsus (amaliy ko'nikmalar, zamonaviy texnologiyalardan foydalanish, o'quv va kasbiy vazifalarni hal qilish usullari), shuningdek, mavjud ko'nikma va malakalardan oqilona foydalanish qobiliyatining mavjudligi, kasbiy faoliyatni takomillashtirish zarurati va tayyorligi | ya'ni kasbiy kompetensiyani shakllantirish va rivojlantirish ta'lim (tayyorlash, o'z-o'zini tarbiyalash) jarayonida sodir bo'ladi, bu kasbiy ta'lim jarayonida kasbiy kompetensiyani shakllantirish bosqichlarini aniqlash imkonini beradi |
| Refleksiv                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                     |                                                                                                                                                                                                                                            |
| Bilim olish va rivojlanish vaqtida o'z-o'zini baholash, o'z-o'zini tahlil va nazorat qilish, kasbiy kompetensiyani shakllantirish samaradorligini aks ettiruvchi faoliyat                                                                                                                                                                                                                                                                     |                                                                                                                                                                                                                                            |

O'qituvchilarning "kasbiy kompetensiya"si deganda, o'z kasbiy bilim va ko'nikmalarini tinmay boyitib borishi va yangi vazifalarni o'z oldiga qo'yishi, ya'ni davr talablarini his etishi hamda o'z amaliy faoliyatida to'g'ri qo'llay olishi tushuniladi. [7].


Geografiya ta'lim yo'nalishi talabalarining kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish zamonaviy pedagogik yondashuvlarni o'zlashtirish, innovatsion texnologiyalardan foydalanish va pedagogik mahoratni oshirish orqali ularning sifatli mutaxassis bo'lib shakllanishida muhim o'rin tutadi. Bu jarayon geografik bilimlarni amaliyotga tatbiq etish, raqamli xaritalar va GIS texnologiyalari bilan ishlash hamda o'qituvchilarda geografik dunyoqarashni shakllantirish qobiliyatini yuksaltirishga xizmat qiladi. [7].

Geografiya talabalarining kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish — bu nafaqat nazariy bilim berish, balki ularni mustaqil fikrlaydigan, zamonaviy axborot texnologiyalarini qo'llay oladigan va pedagogik jarayonni samarali tashkil eta oladigan mutaxassis sifatida shakllantirishning garovidir. [7]

Mutaxassislarning izohlashicha "Kompitensiya" modeli olimlarni tavsiflashda profesional yondashuv asosida ishlab chiqilishi mumkinligini aytadi. Shuningdek, mutaxassisning kompetensiyalari yig'indisini va ularning shakllanishi darajasini aniqlashda quyidagicha yondashadi. Bo'lajak o'qituvchining kasbiy muhitda talablarga ega bo'lishini.

Bo'lajak geografiya fani o'qituvchilarning jamiyatga foydali bo'lishi uchun o'zini va atrof-muhitini o'rganishga tayyor bo'lishini tavsiflangan.

Quyida bo'lajak o'qituvchining kompetentligi asosida aks etuvchi sifatlarning mohiyati qisqacha yoritiladi.



**3-rasm. Bo'lajak geografiya fani o'qituvchilarning kompetentligi va sifatlari.**

Kompetensiya-faoliyatni amalga oshirishga tayyorgarlikni ko'rsatadigan predmet sohasi, kompetensiya shaxs xususiyatlarining ajralmas qismi bo'lib, bo'lajak geografiya fani o'qituvchilarni muayyan sohada ishlashga tayyorlash natijasidir.

Kompetensiyalar - bu kasbiy va mehnat muammolarni hal qilishga qaratilgan va bo'lajak bitiruvchilarning ijtimoiy va faoliyatlariga integratsiyalashuvining omili bo'lgan barcha mutaxassisliklar uchun o'zgarmas jarayoninig universal usulidir.

Dunyoda kompetensiyalarning tizimlashtirilgan yagona bir ro'yxati yo'q. Chunki har bir mintaq, malakat yoki oliy ta'lim muassadasalarining o'ziga xos an'analari, mentaliteti va strategiyasi bor. Shuning uchun kompeyensiyalar ro'yxati har bir mamlakat uchun ijtimoiy muhitga mos talablar hamda standartlar asosida jamyat tomonidan fuqarolarga qo'yiladigan ijtimoiy talablar asosida belgilanadi. Ta'limning ma'lum bosqichida har birta'lim yo'nalishi hamda fanlar bo'yicha kompetensiyalar aniqlanadi.

Bo'lajak geografiya ta'lim yo'nalishi talabalarining kompetensiyaviy yondashuv asosida rivojlantirishda, kompetensiyaviy yondashuvning mazmunini aniqlash uchun uning umumiy vazifasi va ta'limdagi faoliyati bilan bog'liq tuzilma kerak bo'ladi. Kompetensiyalarning an'anaviy ta'lim parametrlari bilan solishtirilishini ta'minlash uchun ta'limdagi kompetensiyalar tarkibi quyidagicha tavsiflanadi.

Yuqoridagi tahlillar shuni ko'rsatadiki, kasbiy kompetensiyaga ega bo'lgan talabalarda quyidagilar namoyon bo'ladi. Bo'lajak pedagoglarning xayoliga kelmagan g'oyalarni bildiradi, o'zlarini ifoda etishning o'ziga xos uslubini tanlaydi, ba'zan mavzuga aloqasi yo'q yoki g'ayri oddiy savollar beradi, yechimi ochiq qolgan vazifalardan zavqlanadi, g'oyalarni aniq dalillar asosida muhokama qilishni afzal ko'radi, muammoning yechimini topishda noan'anaviy

- 68** yondashuvni tanlaydi. Oliy ta'lim muassasalarida tahsil olayotgan bo'lajak "Geografiya" fani o'qituvchilarga o'quv va tarbiya jarayonlarini tashkil etishda an'anaviy yondashuvlardan farqli ravishda kreativ g'oyalar haqida fikr yuritishi, o'ziga xoslik, tashabbuskorlik talab etiladi. Binobarin, kasbiy kompetensiya sifatlariga ega bo'lajak pedagogning innovatsion kasbiy faoliyatini tashkil etishda ijodiy yondashish orqali o'quv faoliyatida, shaxsiy sifatlarini rivojlantirishga xizmat qiladigan, ilg'or pedagogik tajribalarni mustaqil o'zlashtirishi hamda hamkasblar bilan pedagogik yutuqlar xususida doimiy izchil fikr almashish tajribasiga ega bo'lishiga e'tibor qaratish lozim.

***Foydalanilgan adabiyotlar***

1. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida" qonuni. Toshkent sh., 2020-yil 23 sentabr, O'RQ-637-son.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining SH.M.Mirziyoyevning 2020 yil 24 yanvarda O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga
3. 2022-yil 11-maydagi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2022 – 2026-yillarda maktab ta'limini rivojlantirish bo'yicha milliy dasturni tasdiqlash to'g'risidagi" PF-134-sonli Farmoni
4. Kaxarova D.S. Bo'lajak o'qituvchilarni inklyuziv ta'limga tayyorlashda kompetensiyaviy yondashuv asosida rivojlantirish nazariyasi va metodikasi. Pedagogika fanlari doktori (dsc) dissertatsiyasi.
5. Tojiev Z.N. «O'zbekiston Respublikasida demografik jarayonlar va ularning hududiy xususiyatlari». Geografiya fanlari doktori (DSc) dissertatsiya avtoreferati. Toshkent: 2019-yil.125 b.
6. Raximov Z.T. "Innovatsion yondashuv asosida bo'lajak kasb ta'limi o'qituvchilarning o'quv bilish kompetentligini rivojlantirish texnologiyasi" Pedagogika fanlari doktori (DSc) dissertatsiya avtoreferati. Toshkent: 2021-yil.62 b.
7. Jo'rayev A.R., Shadiyeva N.Sh., Shoyimov A.M. Bo'lajak o'qituvchilarini kasbiy faoliyatga tayyorlashda dasturiy ta'lim vositalarining o'rni // O'zMU xabarleri. № 3. Toshkent 2022-yil. 58-61 b